

8. Sulstonova, Y. (2023). Turistik xizmatlar va mahsulotlarni diversifikatsiyalashni boshqarishning xorij tajribalari va undan mamlakatimiz amaliyotida foydalanish uslubiyotlari. *Iqtisodiyot va ta'lim*, 24(4), 318-326.
9. Sulstonova, Y. (2023). KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISH VA UNING INFRATUZILMASINI QO'LLAB-QUVVATLASHNI O'RGANISHNING NAZARIY VA USLUBIY ASOSLARI. *Yosh Tadqiqotchi Jurnal*, 2(2), 101-104.
10. Yulduzxon, S. (2022). Six key principles for effective teaching of mathematics: Six key principles for effective teaching of mathematics. *Qo'qon universitetining ilmiy materiallar bazasi*, 1(000006).
11. Kamoldinovna, S. Y. (2022). TADBIRKORLIK FAOLIYATIDA ISHLAB CHIQRISHNI KLASSTER USULIDA TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH. *Yosh Tadqiqotchi Jurnal*, 1(5), 309-314.
12. Kamoldinovna, S. Y. (2024). OLIY O 'QUV YURLARIDA MATEMATIK MODELLASHTIRISHNING AHAMIYATI (TURIZM YO 'NALISHI MISOLIDA). *Kokand University Research Base*, 533-535.
13. Umidjon, J. (2024). MILLIY IQTISODIYOT RIVOJLANISHIDA XALQARO MOLIYA MUNOSABATLARINING TUTGAN O'RNI VA AHAMIYATI. *University Research Base*, 273-276. Retrieved from <https://scholar.kokanduni.uz/index.php/rb/article/view/514>

BARQAROR IQTISODIY O'SISH OMILI SIFATIDA SHAHARSOZLIK VA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSION STRATEGIYALAR

Abdullajonov Davronjon

Qo'qon universitetining

Xalqaro turizm va iqtisodiyot kafedrasini o'qituvchisi

abdavron94@gmail.com

Aliqulov Azizxon

Qo'qon universiteti

"Iqsodiyot" yo'nalishi magistranti. tel: [976373333](tel:976373333)

Annotatsiya: Ushbu maqolada barqaror iqtisodiy o'sish omili sifatida shaharsozlik va turizmni rivojlantirishga yo'naltirilgan investitsion strategiyalar tahlil qilinadi. Zamonaviy shahar infratuzilmasini rivojlantirish, ekologik barqarorlikni ta'minlash va turizm salohiyatini oshirishga qaratilgan investitsiya modellarining samaradorligi o'rganiladi. Shuningdek, davlat-xususiy sheriklik, innovatsion moliyalashtirish usullari va global tajribalar asosida investitsion loyihalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish yo'llari ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari shaharsozlik va turizm orqali iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda investitsion strategiyalarning o'rni va ahamiyatini yoritishga qaratilgan ilmiy asoslangan tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: Shaharsozlik, turizm, investitsiya, strategiya, iqtisodiy o'shish.

Аннотация: В статье анализируются инвестиционные стратегии, направленные на развитие городского развития и туризма как фактора устойчивого экономического роста. Будет изучена эффективность инвестиционных моделей, направленных на развитие современной городской инфраструктуры, обеспечение экологической устойчивости и повышение туристического потенциала. Будут также рассмотрены пути успешной реализации инвестиционных проектов на основе государственно-частного партнерства, инновационных методов финансирования и мирового опыта. Результаты исследования включают научно обоснованные рекомендации, направленные на выявление роли и значения инвестиционных стратегий в обеспечении экономической устойчивости посредством развития городов и туризма.

Ключевые слова: Городское планирование, туризм, инвестиции, стратегия, экономический рост.

Abstract: This article analyzes investment strategies aimed at the development of urban development and tourism as a factor of sustainable economic growth. The effectiveness of

investment models aimed at developing modern urban infrastructure, ensuring environmental sustainability and increasing tourism potential is studied. Also, ways of successful implementation of investment projects based on public-private partnerships, innovative financing methods and global experiences are considered. The results of the study include scientifically based recommendations aimed at highlighting the role and importance of investment strategies in ensuring economic sustainability through urban development and tourism.

Keywords: Urban planning, tourism, investment, strategy, economic growth.

Kirish: Barqaror iqtisodiy o'sish har bir davlatning strategik maqsadlaridan biri bo'lib, uning asosi investitsiyalarni jalb qilish, infratuzilmani rivojlantirish va innovatsion texnologiyalarni joriy etishdan iborat. Bugungi kunda shaharsozlik va turizm sohalari ushbu jarayonda muhim o'rin tutib, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash vositalaridan biri sifatida qaralmoqda. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, davlat tomonidan shahar infratuzilmasiga kiritilgan investitsiyalar nafaqat iqtisodiy o'sishni tezlashtiradi, balki aholi turmush darajasini yaxshilashga ham xizmat qiladi.

Shaharsozlik va turizm sohasida investitsion strategiyalarni shakllantirish bo'yicha dunyoning rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarida keng qamrovli tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, iqtisodchi va shahar rejalashtirish bo'yicha mutaxassis Jan Geyl (2010) o'zining "Cities for People" (Insonlar Uchun Shaharlar) asarida shaharlarning iqtisodiy rivojlanishida inson omiliga asoslangan yondashuvni ilgari suradi. Uning tadqiqotlari shahar infratuzilmasini innovatsion yondashuvlar bilan boyitish investitsion jozibadorlikni oshirishini ko'rsatadi. Shu bilan birga, iqtisodiyot nazariyotchilaridan Edvard Gleyszer (2011) "Triumph of the City" asarida shaharlarga yo'naltirilgan sarmoyalar jamiyatni modernizatsiya qilish, iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirish va ijtimoiy tengsizlikni kamaytirishda muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi.⁷

Shaharsozlik va turizmni rivojlantirish bo'yicha investitsion strategiyalarning barqaror iqtisodiy o'sishga ta'siri borasida Aleksandr Mishenin (2015) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Uning fikriga ko'ra, turizm sektoriga yo'naltirilgan investitsiyalar faqatgina muddatli iqtisodiy daromad manbai bo'lib qolmay, balki uzoq muddatli barqaror o'sish uchun infratuzilmani modernizatsiya qilish, yashil iqtisodiyotni rivojlantirish va yangi ish o'rinlari yaratish imkoniyatini beradi. Shuningdek, Roberto Kamagni va Filipp Makkann (2020) o'z tadqiqotlarida shahar infratuzilmasiga kiritiladigan investitsiyalar urbanizatsiya jarayonlarini tezlashtirish, aholi migratsiyasini boshqarish va turizmning innovatsion rivojlanishiga xizmat qilishini qayd etganlar.

Shu bilan birga, barqaror turizm uchun bir qancha to'siqlar ham aniqlandi. Infratuzilmaga keladigan bo'lsak, yirik shaharlardan tashqarida rivojlanmagan. Sayyohlik boshqaruvi salohiyati, ekskursiyadan tortib barqarorlik standartlarigacha kuchaytirishni talab qiladi. Turizm ob'ektlariga va marketingga nisbatan investitsiyalar cheklangan. Jamoatchilikni jalb qilish va turistik loyihalardan foyda olishish bir-biriga mos kelmaydi. Atrof-muhitni muhofaza qilishni turizm sektoridagi jadal rivojlanayotganini hisobga olgan holda kuchaytirish kerak. Barqaror turizm bo'yicha bir qancha eko turizm maskanlariga aylangan mamlakatlarda qilingan islohotlar va ularning barqarorlikni saqlab qolish uchun amalga oshirgan strategiyalari mavjud. Bular: Kosta-Rika ko'pincha barqaror turizmning yetakchi namunasi sifatida tilga olinadi. Mamlakat atrof-muhitni muhofaza qilishda sezilarli yutuqlarga erishdi, uning yerlarining taxminan 25% muhofaza qilinadigan hududlar sifatida belgilangan. Kosta-Rikaning barqarorlikka sodiqligi uning milliy bog'lar, eko-lojalar va barqaror turizm sertifikatlarining keng tarmog'ida yaqqol namoyon bo'ladi. Mamlakatda ekoturizmga e'tibor qaratilayotgani nafaqat uning boy bioxilma-xilligini saqlab qolgan, balki uning iqtisodiy o'sishiga ham xizmat qilmoqda. Butanning barqaror turizmga bo'lgan yondashuvi uning Yalpi Milliy Baxt falsafasiga asoslangan bo'lib, u o'z fuqarolarining farovonligini iqtisodiy o'sishdan ustun qo'yadi. Mamlakatda turistlar sonini cheklovchi "yuqori

⁷ Tan, Y., Jiang, G., Merajuddin, S. S., & Zhao, F. (2025). Urbanization and tourism economic development. *Finance Research Letters*, 73, 106632.

qiyamatli, kam ta'sirli" turizm siyosati amalga oshirildi, shu bilan birga turizmdan tushgan daromad mahalliy hamjamiyatlarga foyda keltirishi ta'minlandi. Butanning madaniy muhofaza va atrof-muhitni muhofaza qilishga sodiqligi uni barqaror turizm uchun namunaga aylantirdi⁸

Asosiy qism: Ushbu tadqiqotda shaharsozlik va turizm sohasida investitsion strategiyalarni shakllantirish bo'yicha ilg'or xalqaro amaliyotlar tahlil qilinadi hamda ularning iqtisodiy barqarorlikka ta'siri ko'rib chiqiladi. Xususan, Singapur, ispaniya, Germaniya, Janubiy koreya, BAA, Xitoy va Turkiya kabi davlatlarning urbanizatsiya va turizm sektoridagi investitsiya modellarini tahlil qilish orqali O'zbekiston uchun eng maqbul strategiyalar aniqlanadi. Tadqiqotda ilg'or investitsion yondashuvlar asosida O'zbekiston shaharlarining iqtisodiy va ijtimoiy jozibadorligini oshirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar beriladi.

1. **Singapur** – dunyodagi eng muvaffaqiyatli urbanizatsiya va turizm strategiyalaridan biriga ega davlat sifatida e'tirof etiladi. Hukumat tomonidan ishlab chiqilgan uzoq muddatli rejalashtirish modeli shahar infratuzilmasini zamonaviy texnologiyalar asosida rivojlantirishga qaratilgan. Singapurda turizm sektori davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanib, ekoturizm, biznes-turizm va sun'iy orollarda dam olish maskanlari kabi loyihalarga investitsiyalar jalb qilinmoqda. Hukumat tomonidan "Smart Nation" loyihasi doirasida innovatsion texnologiyalar joriy etilib, shahar infratuzilmasini barqaror rivojlantirish va turizm sohasida yangi investitsiyalarni jalb qilish choralari ko'rilmoqda. Singapur hukumati mehmonxona biznesi, kongress va konferensiyalar turizmi, sun'iy orollarda kurortlar tashkil etish va ekologik turizmni rivojlantirish orqali o'z iqtisodiyotini mustahkamlab kelmoqda. Ushbu strategiya shaharni nafaqat iqtisodiy markaz, balki global turizm yo'nalishiga aylantirdi.

2. **Birlashgan Arab Amirliklari (BAA)** – Dubay va Abu-Dabi shaharlarida amalga oshirilgan ulkan infratuzilma loyihalari shaharsozlik va turizm sohasida investitsion strategiyalarning muhim namunasi. BAA hukumati jahon miqyosidagi mehmonxonalar, sun'iy orollar, innovatsion aeroportlar va yirik savdo markazlariga sarmoya kiritish orqali sayyohlarni jalb qilishga muvaffaq bo'ldi. Dubaydagi "Expo 2020" tadbiri ham bu strategiyaning muvaffaqiyatli natijasi bo'lib, iqtisodiy o'sishga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Shuningdek, Dubay va Abu-Dabida turizmni yanada rivojlantirish uchun "Dubai Tourism Vision 2025" strategiyasi ishlab chiqilgan bo'lib, bu strategiya davlat va xususiy sektor hamkorligini kuchaytirish, ekoturizm va madaniy turizmni rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Hukumat tomonidan amalga oshirilayotgan "Dubai 2040 Urban Master Plan" dasturi esa barqaror shaharsozlik va iqtisodiy o'sishni ta'minlashga qaratilgan.

3. **Turkiya** – turizmni rivojlantirish orqali iqtisodiy o'sishga erishgan davlatlardan biri bo'lib, so'nggi yillarda investitsiyalar hajmini sezilarli darajada oshirdi. Istanbul, Antalya va Bodrum kabi shaharlar mehmonxona va infratuzilma qurilishi, sayyohlik markazlarini rivojlantirish orqali global turizm bozorida yetakchi davlatlardan biriga aylandi. Hukumat tomonidan sayyohlik infratuzilmasiga katta miqdorda investitsiyalar jalb qilinib, tarixiy va madaniy meros obidalarini ta'mirlandi, turizm uchun qulay sharoitlar yaratildi. Turkiyada "2023 Turizm Strategiyasi" doirasida madaniy, ekologik va sog'liqni saqlash turizmi rivojlantirilmoqda. Turkiya hukumati tomonidan joriy etilgan davlat-xususiy sheriklik (PPP) modeli orqali yirik turizm loyihalari amalga oshirilmoqda. Bundan tashqari, "Istanbul New Airport" loyihasi xalqaro sayyohlik va biznes turizmini rivojlantirishda muhim omil bo'ldi.

4. **Germaniya** – urbanizatsiya va yashil iqtisodiyot tamoyillariga asoslangan investitsion siyosatni muvaffaqiyatli amalga oshirib kelayotgan davlatlardan biridir. Shaharsozlikda ekologik toza texnologiyalardan foydalanish, energiya samaradorligi va yashil hududlarni kengaytirish Germaniyaning barqaror rivojlanish strategiyasining asosiy yo'nalishlari hisoblanadi. Berlin, Myunxen va Gamburg kabi yirik shaharlarda transport tizimini modernizatsiya qilish va ekologik barqarorlikni ta'minlash bo'yicha katta hajmdagi investitsiyalar

⁸ Omonjon, U. (2024). O'ZBEKISTONDA BARQAROR TURIZMNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI. Universitet tadqiqot bazasi, 544–548.

kiritilgan. Germaniyada “Smart City Germany” dasturi doirasida shaharlarni raqamlashtirish, ekologik infratuzilmani rivojlantirish va yashil energiya manbalaridan foydalanishga katta e’tibor qaratilgan. Turizm sohasida esa madaniy meros, biznes-turizm va ekologik turizm yo’nalishlariga alohida e’tibor qaratilib, barqaror iqtisodiy o’sish omillaridan biri sifatida rivojlantirilmoqda. Germaniya hukumati yashil shaharsozlik strategiyalarini rivojlantirish uchun “National Urban Development Policy” dasturini joriy etgan bo’lib, bu dastur barqaror investitsiyalarni jalb qilish va turizm sektorini rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

5. **Janubiy Koreya** – shaharsozlik va turizm sohasidagi innovatsion investitsiya strategiyalari bilan ajralib turadi. Seul va Pusan shaharlari zamonaviy texnologiyalar asosida rivojlantirilgan bo’lib, smart-shahar konsepsiyasiga asoslangan infratuzilma loyihalari amalga oshirilgan. Janubiy Koreya hukumati turizm sohasida tarixiy va zamonaviy madaniyat uyg’unligini rivojlantirishga katta e’tibor qaratib, xalqaro sayyohlarni jalb qilish uchun keng qamrovli marketing strategiyalarini yo’lga qo’ygan. Shuningdek, ekologik turizm va sog’liqni saqlash turizmi bo’yicha ham yirik investitsiyalar jalb qilingan bo’lib, bu mamlakat iqtisodiyotiga sezilarli daromad keltirmoqda. Janubiy Koreyada shaharsozlikni rivojlantirish bo’yicha “Smart City Korea” dasturi doirasida zamonaviy texnologiyalar asosida shaharlarda ekologik barqaror infratuzilmalar yaratilib, aholi uchun qulay yashash sharoitlari ta’minlanmoqda. Turizm sohasida esa hukumat tomonidan “Korea Tourism 4.0” strategiyasi ishlab chiqilgan bo’lib, bu strategiya raqamli turizm xizmatlarini rivojlantirish, madaniy merosni targ’ib qilish va ekologik turizmni rivojlantirishga qaratilgan.

6. **Xitoy** – urbanizatsiya va turizm sohalarida yirik investitsiyalar amalga oshirilayotgan mamlakatlardan biri hisoblanadi. Pekin, Shanxay va Guanchjou shaharlarida aqlli shahar texnologiyalaridan foydalanish, ekologik barqarorlikni ta’minlash va turistik infratuzilmani kengaytirish davlat strategiyasining asosiy yo’nalishlaridan biri hisoblanadi. Xitoy hukumati investitsiyalarni tartibga solish, mahalliy va xorijiy investorlarni jalb qilish orqali shaharsozlik va turizm sektorlarini rivojlantirishni jadallashtirmoqda.

7. **Ispaniya** – Yevropaning eng yirik turizm yo’nalishlaridan biri bo’lib, yiliga millionlab sayyohlarni qabul qiladi. Hukumat tomonidan amalga oshirilgan “Smart Destination” dasturi raqamli texnologiyalarni turizmga integratsiya qilish orqali xizmat sifatini oshirishga qaratilgan. Shuningdek, Ispaniyada ekologik turizm va madaniy meros obyektlarini rivojlantirishga katta e’tibor qaratiladi.

O’zbekiston urbanizatsiya va turizmni rivojlantirish borasida katta salohiyatga ega bo’lib, ilg’or xalqaro tajribalarni o’rganish va ularni milliy sharoitga moslashtirish orqali iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashi mumkin. Jahonning rivojlangan davlatlari tomonidan qo’llanilgan investitsion strategiyalar, infratuzilmani modernizatsiya qilish va turizmni kengaytirish yo’nalishlari O’zbekiston uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Quyida urbanizatsiya va turizm sohasida samarali natija bergan beshta davlat tajribasi va ularning O’zbekiston sharoitida qo’llanilishi tahlili quyidagicha keltirilgan.

- **Singapur tajribasi:** Singapur butun dunyoga innovatsion shaharsozlik va aqlli infratuzilma tizimlarini rivojlantirgan mamlakat sifatida mashhur. Ushbu mamlakat urbanizatsiyani samarali boshqarish orqali smart shaharlar yaratish, ekologik barqarorlikni ta’minlash va raqamli texnologiyalarni joriy etishda ilg’or tajribaga ega. O’zbekiston Singapur tajribasidan foydalanib, Toshkent, Samarqand, Buxoro va boshqa yirik shaharlarni raqamlashtirish, aqlli transport tizimlarini joriy etish va ekologik infratuzilmani rivojlantirish orqali urbanizatsiya darajasini oshirishi mumkin. Ayniqsa, aqlli yoritish tizimlari, raqamli boshqaruv markazlari va barqaror energiya manbalaridan foydalanish mamlakat shaharlarida yashash sharoitlarini yaxshilashga xizmat qiladi.

- **Birlashgan Arab Amirliklari (BAA) tajribasi:** BAA turizm sohasida yirik investitsiyalar kiritgan davlatlardan biri bo’lib, bu mamlakat qisqa vaqt ichida global turistik markazga aylangan. Dubai va Abu-Dabi kabi shaharlar turizm infratuzilmasining rivojlanishiga ko’plab sarmoyalar jalb qilgan. O’zbekiston uchun BAA tajribasidan o’rganish mumkin bo’lgan

asosiy jihatlar – yangi mehmonxonalar, zamonaviy dam olish maskanlari va xalqaro sayyohlarni jalb qilish uchun qulay muhit yaratishdir. Samarqand, Buxoro, Xiva kabi tarixiy shaharlar ekoturizm va madaniy turizm markazlari sifatida rivojlantirilib, ularga xorijiy sarmoyalarni jalb qilish yo'llari ishlab chiqilishi lozim.

- **Turkiya tajribasi:** Turkiya turizm infratuzilmasini rivojlantirishda davlat-xususiy sheriklik (PPP) modelidan samarali foydalanmoqda. Istanbul, Antaliya va Kapadokiya kabi hududlarda sayyohlik markazlari kengaytirilib, xorijiy va mahalliy sarmoyadorlar bilan hamkorlikda mehmonxonalar, dam olish maskanlari va transport tarmoqlari rivojlantirilgan. O'zbekiston ushbu tajribani o'rganib, turizm sektorida xususiy sarmoyalarni jalb qilish, mehmonxona biznesini rivojlantirish va turistik xizmatlarning sifatini oshirish bo'yicha o'z modelini shakllantirishi mumkin.

- **Ispaniya tajribasi:** Ispaniya dunyodagi eng yirik turizm yo'nalishlaridan biri bo'lib, mamlakat yiliga millionlab sayyohlarni qabul qiladi. Mamlakat turizmni rivojlantirishda raqamli texnologiyalar va aqlli turizm strategiyalaridan foydalanadi. O'zbekiston uchun tarixiy va madaniy meros obyektlarining sayyohlik jozibasini oshirish, ularni raqamli platformalar orqali targ'ib qilish hamda onlayn turizm xizmatlarini kengaytirish Ispaniya tajribasidan o'rganilishi mumkin bo'lgan muhim jihatlardir.

- **Xitoy tajribasi:** Xitoy urbanizatsiya jarayonida tez rivojlanayotgan davlatlardan biri bo'lib, u zamonaviy infratuzilmani rivojlantirish va ekologik barqarorlikni ta'minlashda ilg'or yondashuvlarga ega. Xitoy yirik shaharlarda zamonaviy transport tizimlarini yaratish, ekologik toza energiya manbalarini joriy etish va barqaror urbanizatsiyani rivojlantirish bo'yicha ko'plab muvaffaqiyatli loyihalarni amalga oshirgan. O'zbekiston Xitoy tajribasidan foydalangan holda zamonaviy jamoat transport tizimlarini rivojlantirish, ekologik toza energiya manbalaridan foydalanish va aholi punktlarini rejalashtirishda innovatsion texnologiyalarni joriy etish yo'nalishlariga e'tibor qaratishi zarur.

Yuqorida keltirilgan davlatlar tajribasi O'zbekiston urbanizatsiya va turizmni rivojlantirish bo'yicha foydalanishi mumkin bo'lgan samarali modellardir. Smart shahar texnologiyalari, turizm infratuzilmasini rivojlantirish, davlat-xususiy sheriklik modeli, raqamli turizm xizmatlari va ekologik barqaror urbanizatsiya O'zbekiston uchun kelgusida iqtisodiy o'sish va barqaror rivojlanish yo'lidagi muhim yo'nalishlar bo'lishi mumkin. Ushbu tajribalarni milliy sharoitga moslashtirish orqali O'zbekiston urbanizatsiya va turizm sohasida jahon miqyosida raqobatbardosh davlatga aylanishi mumkin.

Shaharsozlik va turizmni rivojlantirish bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, investitsion strategiyalarni samarali amalga oshirish iqtisodiy o'sishning muhim omillaridan biridir. Urbanizatsiya va turizm sohasida investitsiyalarni jalb qilish nafaqat iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlaydi, balki ijtimoiy taraqqiyotga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ko'plab iqtisodchilar va shahar rejalashtiruvchilari bu borada ilmiy tadqiqotlar olib borib, investitsiyalarning shaharlarga va turizmga ta'siri yuzasidan turli konsepsiyalarni ilgari surgan.

Masalan, taniqli shaharshunos va iqtisodchi Jeyn Jeykobs (Jane Jacobs) urbanizatsiya jarayonining iqtisodiy rivojlanishdagi ahamiyatini chuqur o'rgangan. Uning "The Death and Life of Great American Cities" (Amerikaning Buyuk Shaharlari Hayoti va O'limi) asarida shaharlarni innovatsion va iqtisodiy markaz sifatida rivojlantirish zarurligi asoslanadi. U shaharlarning iqtisodiy salohiyatini oshirishda ularning o'ziga xos tuzilishi, funksional diversifikatsiyasi va aholining faolligi muhim rol o'ynashini ta'kidlagan. Jeykobsga ko'ra, shaharlarda investitsiyalar nafaqat yirik infratuzilma loyihalariga, balki kichik biznes va xizmat ko'rsatish sektoriga ham yo'naltirilishi kerak, chunki bu iqtisodiy faollikning uzluksiz rivojlanishini ta'minlaydi.

Nobel mukofoti sovrindori iqtisodchi Pol Krugman (Paul Krugman) o'zining yangi iqtisodiy geografiya nazariyasida shaharlarda iqtisodiy klasterlarni yaratish muhimligini ko'rsatadi. Uning fikricha, shaharsozlik siyosati innovatsiyalarni rivojlantirish, biznes muhitini yaxshilash va transport tizimini modernizatsiya qilish orqali raqobatbardoshlikni oshirishga qaratilishi kerak. Krugmanning ta'kidlashicha, yirik shaharlarda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasining

klasterlar asosida joylashishi iqtisodiy o'sishning asosiy omillaridan biridir. Shu sababli, urbanizatsiya jarayonida hududiy iqtisodiy markazlarni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari, Richard Florida o'zining "Ijodiy shaharlar" (Creative Cities) konsepsiyasida urbanizatsiya va turizmni rivojlantirishda kreativ iqtisodiyotning o'rni haqida fikr bildiradi. U ijodkorlik va madaniyat iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sir ko'rsatishini qayd etib, innovatsion infratuzilma, kreativ industriyalar va turizmning o'zaro bog'liqligini ta'kidlaydi. Florida shaharlarning iqtisodiy rivojlanishi uchun ularni jahon miqyosidagi madaniy markazlarga aylantirish muhim ekanini ta'kidlagan. Ayniqsa, turizm sohasi san'at, musiqa, festivallar va tarixiy obidalarni targ'ib qilish orqali shahar iqtisodiyotiga katta foyda keltirishi mumkinligini ko'rsatgan.⁹

Yana bir muhim yondashuv Edvard Gleyszer (Edward Glaeser) tomonidan ilgari surilgan bo'lib, u o'zining "Triumph of the City" asarida shaharlarga investitsiya kiritish nafaqat infratuzilmani yaxshilash, balki aholi bilim darajasi va iqtisodiy faolligini oshirish orqali ham samarador natijalar berishini ta'kidlaydi. Gleyszer urbanizatsiyaning eng katta afzalliklaridan biri sifatida iqtisodiy faollik va innovatsiyalarni jadallashtirishni ko'rsatadi. Uning fikricha, zamonaviy shaharlar global iqtisodiyotning asosiy markazlariga aylanmoqda va bunda davlat investitsiyalarining roli juda katta.¹⁰

Ushbu tadqiqotlardan kelib chiqib, O'zbekiston uchun urbanizatsiya va turizmni rivojlantirishda bir qancha muhim yo'nalishlarni belgilash mumkin. Birinchidan, investitsion strategiyalarni modernizatsiya qilish va davlat-xususiy sheriklik tizimini kengaytirish zarur. Chet el tajribasidan kelib chiqib, yirik infratuzilma loyihalarini amalga oshirish bilan birga, kichik va o'rta biznes uchun shart-sharoit yaratish muhimdir. Ikkinchidan, ijtimoiy va ekologik barqarorlikni ta'minlash orqali shaharlarni yashash uchun qulay va jozibador joylarga aylantirish lozim. Uchinchidan, madaniy meros va turizm sektorini rivojlantirishga e'tibor qaratish orqali xorijiy investitsiyalarni jalb qilish mumkin.¹¹

Shunday qilib, olimlarning tadqiqotlari shaharsozlik va turizmni rivojlantirish bo'yicha innovatsion yondashuvlar iqtisodiy o'sishning muhim omillaridan biri ekanini ko'rsatadi. O'zbekiston uchun ushbu ilmiy yondashuvlar asosida urbanizatsiya va turizmni rivojlantirish bo'yicha strategik chora-tadbirlarni ishlab chiqish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Xulosa: Barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda shaharsozlik va turizmni rivojlantirish muhim omillardan biri hisoblanadi. Investitsion strategiyalar shahar infratuzilmasini modernizatsiya qilish, turizm salohiyatini kengaytirish va iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashda asosiy rol o'ynaydi. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, Singapur, Germaniya, Birlashgan Arab Amirliklari, Turkiya va Janubiy Koreya kabi mamlakatlar urbanizatsiya va turizm sohasiga sarmoya yo'naltirish orqali iqtisodiy o'sishga erishgan. Ushbu davlatlarning tajribasi shuni tasdiqlaydiki, davlat-xususiy sheriklik modeli, innovatsion infratuzilma loyihalari va ekologik barqarorlikka qaratilgan strategiyalar investitsiyalarni samarali boshqarish imkonini beradi.

O'zbekiston shaharsozlik va turizmni rivojlantirish bo'yicha xalqaro tajribadan foydalanishi, xususan, smart-shahar texnologiyalarini joriy etishi, ekoturizm va madaniy merosni rivojlantirishga e'tibor qaratishi lozim. Investitsiyalarni jalb qilishda raqamli texnologiyalarni

1. ⁹ Tong, Y., & Zhang, R. (2024). Investigating the multiple mechanisms of tourism economy affecting sustainable urban development of Chinese cities: based on multi-source data. *Environment, Development and Sustainability*, 26(1), 1781-1808.

¹⁰ Abdullajonov, D., & Tukhtasinov, O. (2025, February). FOREIGN TRADE AND INVESTMENTS: KEY FACTORS OF DEVELOPMENT. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE "SCIENTIFIC ADVANCES AND INNOVATIVE APPROACHES" (Vol. 1, No. 4, pp. 51-56).

¹¹ Farmonov, I. (2024). KORXONA VA TASHKILOTLARDA STRATEGIK MARKETING HAMDA RAQAMLI MARKETING FAOLIYATINING ISTIQBOLLARI. QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 13, 52-55.

qo'llash, logistika va transport infratuzilmasini rivojlantirish, turizm sektorida innovatsion yechimlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, investitsion strategiyalarni to'g'ri shakllantirish orqali iqtisodiy o'sishni tezlashtirish, ish o'rinlarini yaratish va mamlakatning xalqaro maydondagi raqobatbardoshligini oshirish mumkin. Shu bois, investitsion strategiyalarni xalqaro tajriba asosida moslashtirish va samarali boshqarish barqaror rivojlanishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Tan, Y., Jiang, G., Merajuddin, S. S., & Zhao, F. (2025). Urbanization and tourism economic development. *Finance Research Letters*, 73, 106632.
2. Tong, Y., & Zhang, R. (2024). Investigating the multiple mechanisms of tourism economy affecting sustainable urban development of Chinese cities: based on multi-source data. *Environment, Development and Sustainability*, 26(1), 1781-1808.
3. Omonjon, U. (2024). O'ZBEKISTONDA BARQAROR TURIZMNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI. Universitet tadqiqot bazasi , 544–548.
4. Abdullajonov, D., & Tukhtasinov, O. (2025, February). FOREIGN TRADE AND INVESTMENTS: KEY FACTORS OF DEVELOPMENT. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE" SCIENTIFIC ADVANCES AND INNOVATIVE APPROACHES" (Vol. 1, No. 4, pp. 51-56).
4. Mamatkhonova, M. (2025). THE ROLE OF INNOVATIONS AND INVESTMENTS IN THE SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF ENTREPRENEURS IN UZBEKISTAN. *Modern Scientific Research International Scientific Journal*, 3(2), 19-29.
5. Shokirjon o'g'li, A. D. (2023). DAVLATNING IQTISODIY OSISHIDA INKLYUZIV VA EKSTRAKTIV INSTITUTLARNING ORNI. QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 32-35.
6. Farmonov, I. (2024). KORXONA VA TASHKIOTLARDA STRATEGIK MARKETING HAMDA RAQAMLI MARKETING FAOLIYATINING ISTIQBOLLARI. QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 13, 52-55.

Elektron manbaalar:

1. <https://president.uz/oz/lists/view/6095>
2. <https://daryo.uz/2019/01/09/shavkat-mirziyoyev-2019-yil-turizm-rivojida-tub-burilish-yili-boladi>
3. <https://kun.uz>
4. Uzbektourism.uz.

TURIZM SOHASIDA FRANCHAYZING ASOSIDA MARKETING TADQIQOTLARI VA INNOVATSION BIZNES-MODELLARNI TADQIQ QILISH YO'LLARI.

Xodjayev Anvar Rasulovich

Buxoro Davlat universiteti

Iqtisodiyot kafedrası o'qituvchisi

E-mail: anikxodja1989@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tezis turizm sohasida franchayzing asosida marketing tadqiqotlari va innovatsion biznes-modellarni tadqiq qilish yo'llariga bag'ishlangan. Unda franchayzingning turizm sohasidagi ahamiyati, bozor talabini o'rganish, raqobat muhitini tahlil qilish va mijozlar xatti-harakatlarini o'rganish kabi marketing tadqiqotlari usullari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, raqamli transformatsiya, barqaror turizm va shaxsiylashtirilgan xizmatlar kabi innovatsion biznes-modellarning franchayzingdagi o'rni tahlil qilingan. Tezisda franchayzingda muvaffaqiyatli marketing strategiyalarini ishlab chiqishning asosiy bosqichlari ham yoritilgan.